

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 10 Jild 4
2024

Атамурадов Шерзод, Самадов Салоҳиддин

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ

НАЗАРИЙ- УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ 91-99

Қодиров Музаффар

РАҚОБАТ МУҲИТИДА ТАШКИЛОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ

САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ 100-108

Amiriddinova Muslima

ANALYSIS OF TOURISM SERVICE TYPE AND GENERAL CATERING TO INCREASE THE

TRAFFIC AND TRAFFIC 109-114

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Tazabay

DARVIN VA MARKS TA'LIMOTI INSON BORLIG'INI OBYEKTIV

TUSHUNTIRISHNING XULOSASI SIFATIDA 115-119

Sultanov Og'abek

SHARQDA YOSHLAR MAS'ULIYATIGA DOIR FALSAFIY QARASHLAR RIVOJI 120-123

Tursunkulova Shaxnoza

HADISLARDA INSONNING GO'ZAL FAZILATLARI XUSUSIDA 124-127

Khushbokov Oybek

THE "TEACHER" PHENOMENON IN THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL

SPACE OF CULTURE 128-134

Tojaliyev Abduqosim

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASH

TIZIMINING INNOVATSION ISTIQBOLLARI 135-139

Sadullaeva Matluba

NUMBER AS THE ESSENCE OF THINGS: PYTHAGOREAN PHILOSOPHY 140-145

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Mirzakamolova Maftuna

ASSOSIATIV LINGVISTIKA VA UNING XUSUSIYATLARI 146-150

Temirova Hayotxon

DIALECT CLASSIFICATION AND PHONETIC CHARACTERISTICS OF UZBEK DIALECTS

IN THE SURKHANDARYA REGION 151-155

Surmilova Elena

LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF TONGUE TWISTERS:

A LITERATURE REVIEW 156-164

Mahmudova Nigoraxon

PRAGMALINGVISTIKADA IKKI YO'NALISH 165-169

Ergasheva Gulshan

NEMISCHA FRAZEOLOGIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI (INSON

INTELLEKTUAL SALOHİYATINI IFODALOVCHI IBORALAR MISOLIDA) 170-174

Masharipova Valentina

DIFFICULTIES CLASSIFYING PARALINGUISTIC MEANS IN A LITERARY TEXT 175-182

Received: 30 September 2024
Accepted: 5 October 2024
Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF GERMAN PHRASEOLOGISTS (EHAMPLE OF EXPRESSIONS EXPRESSING HUMAN INTELLECTUAL CAPACITY)

Ergasheva Gulshan,
Chirchik State Pedagogical University,
Teacher of the German language department

Abstract. In this article, the role and importance of the field of phraseology in German linguistics, the scientific views of various linguists in the field of phraseology, phraseologisms denoting the intellectual potential of a person in German, their structural and semantic features, and their meanings in the Uzbek language are analyzed.

Key words: phraseology, linguistics, linguoculturology, cognitive linguistics, corpus linguistics.

NEMISCHA FRAZELOGIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI (INSON INTELLEKTUAL SALOHİYATINI IFODALOVCHI IBORALAR MISOLIDA)

Ergasheva Gulshan,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Nemis til kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilshunosligida frazeologiya sohasining o'rni, ahamiyati, turli tilshunos olimlarning frazeologiya sohasidagi ilmiy qarashlari, nemis tilida insonning intellektual salohiyatini anglatuvchi frazeologizmlar, ularning struktur va semantik xususiyatlari, o'zbek tilida anglashgan ma'nolari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, lingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, korpus lingvistika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N27>

Kirish. Millat tilining rivoj topishi jamiyatning ko'pgina jabhalarida ko'rinadi. Shuningdek, tilshunoslik sohasi va tarjimashunoslik taraqqiy etishida innovatsion yondashuv hozirgi zamon talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Insonlarning intellektual salohiyat darajasini oshirishda ilm-fan va ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zgarishlar mamlakat taraqqiyoti uchun juda muhimdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiya sanaladi. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz [1; B.14.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Istiqlool sharofati tufayli so'nggi yillarda xorijiy tillarni, shu jumladan, nemis tilining taraqqiy etishini bevosita guvohi bo'lmoqdamiz. Nemis tilida tilshunoslikning barcha tarmoqlari rivojlanganligi, bu tilning jahon davlatlari, shu qatorda, O'zbekistonda sevib o'rganilinayotganidan darak beradi. Nemis tilshunosligida frazeologiya sohasi serqirra tarmoqlardan biri bo'lib, bu borada samarali ishlar olib

borilmoqda. Ma'lumki frazeologiya sohasining eng gullagan davri XX asrning 70-yillariga to'g'ri keladi. Binobarin, M.Stepanova, I.Chernisheva, V.Flaysheer va H.Burger kabilar frazeologiyaning rivoj topishida o'zlarining tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan olimlar hisoblanadi [2; B. 5]. Frazeologiya sohasiga ilk bor Yohann Sattler "Teutsche Orthographie und Phraseologie" asari bilan tamal toshini qo'ygan. Uning rivoj topishida Charlz Ballining ham o'rni beqiyos. Nemis tili frazeologiyasi bo'yicha bir necha samarali ishlar olib borilgan. Ayni vaqtda Germaniyada EUROPHRAS ("European Society of Phraseologie") jamiyati tomonidan har yili frazeologiya sohasida yosh olimlar va ilmiy loyihalar yuzasidan xalqaro anjumanlar olib borilmoqda. Yurtimizda nemis tili frazeologiyasining o'rganilishida professor olimlardan, M.I.Umarxo'jaev va Sh.S.Imyaminovalarning olib borgan tadqiqotlarini qayd etish joizdir. Ushbu olimlar tomonidan frazeologiyaning turli jihatlarini yuzasidan o'rganilishi o'zbek tilshunosligiga ham katta xizmat qilmoqda.

Muhokama. Nemis tili frazeologizmlarga juda ham boy til hisoblanadi. Frazeologiyaning lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, korpus lingvistika, semantika kabi yo'nalishlar bilan bog'liqliligi jihatidan hanuzgacha turli izlanishlar olib borilmoqda. Frazeologizmlarni morfologik-sintaktik tasnifiga ko'ra tasniflashda asosiy element sifatida namoyon bo'ladigan komponentlarning gap qismi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Chunki frazeologik komponentlar gap tuzilishi davomida yetarli darajada gap tarkibidagi boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishadi hamda ma'no va struktura jihatdan moslashadi. Biroq komponentlarning so'z turkumiga bog'liqligi ma'lum rol o'ynaydi, bu frazeologizmning sintaktik tuzilishiga bog'liq. Asosiy elementlarida fe'l bo'lmagan frazeologizm fe'lli frazeologizm vazifasini bajara olmaydi. Biroq, asosiy elementlari ot bo'lgan frazeologizm ham qo'shimchali frazeologizm bo'lishi mumkin. [3; B. 14].

Komponentlarning nutq qismlarini, gapning mumkin bo'lgan qismini va morfologik paradigmani hisobga olgan holda biz frazeologizmlarning quyidagi sinflarini ajratamiz.

- ot;
- sifat;
- ravish;
- fe'l.

V.Flaysheerning klassifikatsiyasini tahlil qilib, uning frazeologizmlar bitta sistemaga ega emas ekanligini va bu orqali ular uchta katta guruhga kiritilishini ko'rishimiz mumkin. Bular nominativ, kommunikativ frazeologizmlar va frazeologik shablonlarga bo'linadi.

Nominativ frazeologizmlar frazeoleksemalar deb ham ataladi. Ular qisman idiomatik yoki to'liq idiomatik bo'lishi mumkin. Uning vazifasi narsa va hodisalar va dalillarni nomlashdir.

Kommunikativ frazeologizmlar: ushbu tuzilmalar belgilangan barqaror predikativ munosabatlar bilan boshqariladi, ko'pincha aniq - qisman ham yashirin, ya'ni qisqartirilgan.

Kommunikativ formulalar aloqada qo'llaniladi, ular kommunikativ funksiyani bajaradilar.

Semantik tuzilishiga ko'ra ularni uch turga bo'lish mumkin:

- to'liq idiomatik
- qisman idiomatik
- noidiomatik

Nemis tilshunos olimi H.Burger ham frazeologizmlar masalalari bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirgan. U asosan idiomalarning stilistik aspektlariga va ularni tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U frazeologizmlarning bir guruhi sifatida idiomalarni sharhlab o'tgan. X.Burgerning fikricha, birikmaning umumiy ma'nosi qoidadan mustasno tarzda talqin qilinadi. [4; B. 17]. Bunda ko'rsatilgan ko'chma ma'noli so'z birikmalari yoki ularning umumiy ma'nolari hech qanday holatda komponentlarning erkin ma'nosidan tushunilmaydi. Frazeologiya komponentlarining tabiatini hamda ularning lisoniy darajasini leksikologiyaning manbalariga tayanib aniqlash mumkin. Frazeologiya fanini o'rganishning o'ziga xos ba'zi muammolari mavjud bo'lib, bu borada mutaxassislarining fikrlari turlichadir.

Darhaqiqat, frazeologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri frazeologiya sohasidagi nazariy va amaliy fikrlarni umumlashtirib, to'g'ri ilmiy tadqiqotni amalga oshirishdan iboratdir. Tilshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar V.Flaysler, V.V.Vinogradov, Ye.D.Polivanov, B.A.Larin, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, L.P.Smit va Sh.Ballilar ham frazeologiya va uning masalalari borasida alohida tahsinga loyiq ishlarni amalga oshirishgan va mazkur sohaning taraqqiyotida ularning xizmatlari nihoyatda beqiyos bo'lgan.

Burger, Buhofer, Sialm ma'lumotlariga ko'ra, variatsiya "frazeologik ma'noni yo'qotmasdan frazeologizmning rasmiy o'zgarishlari mumkin bo'lgan doiradir, bunda bu doirani leksikografik jihatdan tushunish mumkin va kerak. "Ko'pgina frazeologizmlar bitta, to'liq belgilangan nominal shaklga ega emas, lekin ikki yoki undan ortiq juda o'xshash variantlarga ega. Alohida frazeologik komponentlarni almashtirish har doim ham mumkin emas.

Frazeologik birliklar o'ziga xos ma'noga ega. Frazeologik ma'noning o'ziga xos xususiyatlarida uning tarkibiy asosi muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmning yaxlit ma'nosiga komponent asosining semantik ma'nosini qayta ko'rib chiqish orqali erishiladi. Frazeologizmlar so'zlardan farqli ma'noga egaligi yoki leksik jihatdan ular ma'noni tushuntirishning o'ziga xos usulini talab qilishi idiomatiklik masalasi bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun frazeologizmlarning semantikasiga yoki frazeologizmlarning ayrim turlariga turli nuqtai nazardan yondashish kerak. [5; B. 134].

Nemis tili frazeologiyasida insonning intellektual salohiyatini anglatuvchi frazeologizmlar ham alohida o'ringa egadir. Intellektual salohiyat bu avvalo insonlarning qobiliyatlari, bilim zaxiralari, intellektning harakatlantiruvchi kuchlari, motivatsiyalari va uning ijodiy faoliyati mahsuldorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir. Ayniqsa, insonlarning aql-zakovati, diqqat-e'tibori, tafakkuri, xotirasi, iste'dodi, mahorat va qobiliyatini namoyon etuvchi frazeologizmlar ham keng qo'llaniladi. Inson o'zining ilmi, bilimi, kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, ijodi bilan ichki dunyosi yuzaga chiqadi. Shunday qilib intellektual inson psixologik dunyosida muhim o'rin egallaydi. Insonlarning bu kabi noyob qobiliyatlarini ta'riflashda frazeologizmlarga foydalanish ushbu nutqni go'zallashtiribgina qolmay, mazmunini yanada boyitadi. Nemis tilida insonning aqliy qobiliyatini ta'riflay oladigan frazeologizmlar talaygina. [6; B. 296].

Insonning ichki dunyosini ochib berishda ham intellektual salohiyatni anglatuvchi frazeologizmlar muhim hisoblanadi. Nemis tilida intellektual salohiyatni anglatuvchi frazeologizmlarning semantik xususiyati juda serqirradir. Insonlarning bu kabi xususiyatlarini nafaqat turli so'z turkumidagi so'zlarning birikuvidan, balki mavjud bo'lgan frazeologizmlar bilan ham yoritish mumkindir. Ulardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish muloqot jarayonini go'zallashtiradi. Sodda so'zlarga nisbatan frazeologizm ma'nodorliligi va obrazliligi bilan farqlanadi. Insonning ichki dunyosini ochib berishda ham intellektual salohiyatni anglatuvchi frazeologizmlar muhim hisoblanadi. O'zbek va nemis tilidagi ba'zi frazeologizmlar ham ma'no jihatidan mutanosib bo'lishi mumkin.

Masalan, 1. *"Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni"* frazeologizmi nemis tilida *"drei Käse hoch"* iborasiga to'g'ri keladi bu frazeologizm har jihatdan ishiga pishiq, uddaburon insonlarga nisbatan qo'llaniladi.

2. *"einen hellen offenen Kopf haben"* iborasi insonning o'ta kuchli aql sohibi ekanligidan darak beradi [7; B. 75].

3. *"auf dem Kien haben"* – o'z sohasining mohiri, ishining ustasi kabi ma'noni anglatadi.

4. *"auf dem Kasten haben"* – aql-zakovatli insonga nisbatan qo'llaniladi.

5. *"ein gescheites Haus sein"* – idroki baland inson.

6. *"In allen satteln Gerecht sein"* – har ishda mohir va uddaburon bo'lmoqlik ma'nosini anglatmokda.

7. *“(er) hat die Weisheit mit dem Löffel gegessen”* - aql va zehnni qoshiq bilan eb yuborgan deb aytilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

8. *“nicht von gestern sein”* - aqlli inson ma'nosini beradi.

9. *“eine Leuchte der Wissenschaft sein”* – barcha bilimlarning egasi ma'nosida kelmoqda.

10. *“der Weisheit letzter Schluss sein”* – kuchli tafakkur sohibiga nisbatan qo'llaniladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning har tomonlama bilimli ekanligini, qobiliyati etukligini, iste'dodi va mehnatsevarligiga baho beradigan, topqirlikni ifodalaydigan frazeologizmlar talaygina.

O'z o'rnida nemis tilida insonlarning tafakkur dunyosi oqsoqligidan darak beruvchi yoki o'zini aqlli qilib ko'rsatuvchi, hiylakor insonlarga nisbatan kinoya ma'nosida qo'llaniladigan frazeologizmlar ham bir qanchani tashkil etadi.

Masalan, 1. *“ein gerissener Kopf sein”* - ayyor, hiylakor insonga nisbatan qo'llaniladi.

2. *“lange Haare, kurzer Verstand”* - sochi uzun, aqli kalta.

3. *“Bahnhof verstehen”* – hech narsani tushunmaydigan, go'l ma'nosida.

4. *“dumm geboren und dumm geblieben sein”* – aqliga hech narsa sig'maydi, o'rganganlarini ham tezda unutib yuboradigan insonlarni ta'riflashda qo'llaniladi.

5. *“vor Dummheit brüllen/ schreien”* – aqlini yegan, aqlsizlikdan be'mani so'zlarni so'zlovchi inson ma'nosida qo'llaniladi [8 ; B. 30.].

6. *“ein geriebener / ausgekochter Bursche sein”* - ayyor, mug'ombir inson.

7. *“du dumm sein, um ein Loch in Schnee zu pinkeln”* - o'ta ketgan ahmoq

8. *“(er) hat ein Bett vor dem Kopf”* - ahmoq, befahm inson

9. *“Nicht alle Tassen im Schrank haben”* - aqli zaif, aqli etishmaydi.

10. *“Nicht alle Daten i Speicher geben”* - aqli past bo'lmoq.

Yuqorida ko'rsatilgan frazeologizmlar ba'zan hazil-mutoyiba sifatida ham qo'llaniladi. Bu holatda kinoya ma'nosi kuchayadi. Aqlsizlik ma'nosini asosan *“Dumm”* so'zida, aqllilik ma'nosini esa *“Kopf”* so'zida ko'proq qo'llanilishini ta'kidlash mumkin. Albatta, insonning ichki xususiyatlariga, bilim saviyasiga, salohiyatiga baho berish juda qiziqarli mavzulardan biri sanaladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, nemis tilida insonning intellektual salohiyatini aks ettiruvchi frazeologizmlar ichida aql-tafakkur, zakovatlilik, noyob qobiliyat egasi, shu o'rinda, salbiy ma'no anglatuvchi aql-tafakkuri zaif, zehni va bilim saviyasi past kabi ma'nolarini beruvchi frazeologizmlar ham keng tarzda qo'llaniladi. Frazeologiya sohasining o'rni tilshunoslik bo'limida benihoya katta ekanligini ta'kidlagan holda, intellektual salohiyatni anglatuvchi frazeologizmlar ham bu sohada muhim sanalib, ulardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish yanada frazeologiyaning rivojlanishida o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.
2. Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. Toshkent, Mumtoz so'z, 2010.
3. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 1.Aufl. Leipzig, [Max Niemeyer Verlag](#) 1997. S.14
4. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen, Berlin, Erich Schmidt, 2010. - S. 17.
5. Jukov V.P. Formoizmenenie frazeologizmov russkogo yazyka. Russistik, 1991. - C. 134.
6. Umarxo'jaev M., Nazarov Q. Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. Toshkent, O'qituvchi, 1994.
7. Эргашева, Г. С., & Санакулов, З. И. (2022). НЕМИС ТИЛИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТНИ АНГЛАТУВЧИ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ҲУСУСИЯТЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 294-298.

8. Ergasheva, G., & Sanaqulov, Z. (2022). Nemis tilida intellektual salohiyatni anglatuvchi frazeologizmlar xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 294–298. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/535>
9. Sattorova, M. (2023). Comparative typology of German-Uzbekian languages (based on the wolf of the desert by hermann hesse). Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(5 Part 2), 147-150.
10. Sattorova, M. (2023). O'zbek qizidan Hessegga maktub. Obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire, 20(6), 23-28.
11. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).